YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDA FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	



ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURSLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalomov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULYAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLIH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
THE IMPACT OF DIGITAL PAYMENT SYSTEMS DEVELOPMENT ON THE BANKING SECTOR: A COMPARATIVE ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES	1459
Aziza Farmonovna Ergasheva, Rustam Olimjonovich Oltinov	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI	1477
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
O'ZBEKISTONDA TURISTLARGA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1483
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING SAMARALI YO'LLARI.....	1487
Adilov Mirkomil Miralimovich	



TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING SAMARALI YO'LLARI



Adilov Mirkomil Miralimovich

PhD, dotsent, O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi direktor o'rinbosari.

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish masalalari tahlil qilinib, ularning kapital bazasini mustahkamlash, likvidlikni samarali boshqarish, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali moliyaviy samaradorlikni oshirish yo'llari yoritiladi. Shuningdek, xalqaro reyting agentliklari (Moody's, S&P, Fitch, RAM Ratings, Dagong Global) baholarining tijorat banklari faoliyatiga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqotda "O'zmilliybank" misolida milliy banklarning moliyaviy barqarorligini kuchaytirish strategiyalari, xususan kapitalni oshirish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro moliyaviy standartlarga moslashtirish choralari tahlil etiladi. Mazkur tadqiqot tijorat banklarining milliy va xalqaro moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash hamda uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, kapital bazasi, likvidlik, muammoli kreditlar, risklarni boshqarish, innovatsion texnologiyalar, xalqaro reyting agentliklari, moliyaviy boshqaruv.

Abstract. The article examines the key issues of enhancing the financial stability of commercial banks by analyzing approaches to strengthening the capital base, improving liquidity management, reducing the share of non-performing loans, developing risk management systems, and implementing innovative technologies to increase financial efficiency. Special attention is given to the influence of international rating agencies (Moody's, S&P, Fitch, RAM Ratings, Dagong Global) on commercial bank operations. Using the example of "Uzmilliybank," the research explores strategies for strengthening the financial stability of national banks, particularly capital enhancement, credit portfolio diversification, improved corporate governance, and adaptation to international financial standards. The findings are significant for enhancing the competitiveness of commercial banks in national and global financial markets, ensuring financial security, and supporting sustainable economic growth.

Key words: commercial banks, financial stability, capital base, liquidity, non-performing loans, risk management, innovative technologies, international rating agencies, financial management.

Аннотация. В статье анализируются вопросы повышения финансовой устойчивости коммерческих банков, в том числе укрепление капитальной базы, эффективное управление ликвидностью, снижение доли проблемных кредитов, совершенствование системы управления рисками и внедрение инновационных технологий, направленных на повышение финансовой результативности. Также рассматривается влияние международных рейтинговых агентств (Moody's, S&P, Fitch, RAM Ratings, Dagong Global) на деятельность коммерческих банков. На примере «Узмиллийбанк» исследуются стратегии укрепления финансовой устойчивости национальных банков, включая увеличение капитала, диверсификацию кредитного портфеля, совершенствование корпоративного управления и адаптацию к международным финансовым стандартам. Проведенное исследование имеет важное значение для повышения конкурентоспособности коммерческих банков на национальных и международных финансовых рынках, обеспечения финансовой безопасности и содействия устойчивому экономическому росту.

Ключевые слова: коммерческие банки, финансовая устойчивость, капитальная база, ликвидность, проблемные кредиты, управление рисками, инновационные технологии, международные рейтинговые агентства, финансовое управление.



KIRISH

Tijorat banklari har bir mamlakat iqtisodiy tizimining muhim tayanchi va moliyaviy mexanizmining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ular aholining jamg'armalarini to'plash, ushbu moliyaviy resurslarni xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda keng ko'lamli infratuzilma va investitsiya loyihalariga samarali yo'naltirish orqali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Banklar nafaqat moliyaviy vositachilik vazifasini bajaradi, balki iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda ham strategik rol o'ynaydi. Xususan, global moliya bozorlaridagi o'zgaruvchanlik, iqtisodiy xavflarning kuchayishi, raqobatning ortishi hamda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi tijorat banklari faoliyatiga kompleks ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va mustahkamlash bugungi kunda nafaqat banklar sektorida, balki mamlakatning umumiy moliyaviy xavfsizligi va barqaror iqtisodiy rivojlanishi uchun ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida kapital bazasining yetariligi, aktivlar sifatini yaxshilash, kredit risklarini diversifikatsiya qilish, likvidlikni samarali ta'minlash va boshqaruv tizimining raqobatbardoshligini oshirish alohida ahamiyatga ega. Moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, risklarni oldindan baholash va minimallashtirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish banklarning raqobatbardoshlik darajasini sezilarli ravishda oshirib, xizmatlar sifatini yaxshilaydi. Raqamli transformatsiya jarayonlari tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish, mijozlarga qulay xizmat ko'rsatish hamda yangi moliyaviy mahsulot va xizmatlarni shakllantirish imkonini yaratmoqda. Shu bilan birga, banklarni tartibga soluvchi davlat organlarining me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishga qaratilgan faoliyati moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy monitoring va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, bank tizimining shaffofligini oshirish va xalqaro standartlar asosida faoliyat yuritish imkoniyatlari tijorat banklarining mustahkamligini yanada oshiradi.

Mamlakatimizda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan amaliy va nazariy strategiyalar izchil o'rganilmoqda. Xususan, kapital yetariligi oshirish, kredit portfeli sifatini optimallashtirish va diversifikatsiya qilish, likvidlikni barqaror ta'minlash, risklarni boshqarishning zamonaviy tizimlarini joriy etish, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish bank tizimining samaradorligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Global iqtisodiyotdagi o'zgarishlarning bank tizimiga ta'siri, davlat tomonidan moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati va moliyaviy regulatsiya mexanizmlarining takomillashuvi banklarning rivojlanish tendensiyalarini belgilab bermoqda. Fintech texnologiyalari va raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ushbu mavzuning o'rganilishi nafaqat tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish, ularning moliyaviy salomatligini mustahkamlash, balki milliy moliyaviy tizimning barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy xavflarni kamaytirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga erishish nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasi respublika iqtisodchi olimlarining ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. Xususan, milliy bank tizimida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, kredit siyosati va kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha bir qator olimlar — O.K. Iminov, Sh. Abdullayeva, Z.S. Umarova, K.A. Muxamedjanov, D.A. Saidov, D.X. Pulatov, U.O'. Azizov, B.T. Berdiyarov, B.A. Abdug'aniyev, U.A. Tuxtabayev, I.Y. Qulliyev, N.E. Jiyanova, X.A. Tuxsanov, D.J. Suyunova, I.M. Saypidinov va N.R. Kuziyeva tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarda tijorat banklarining kapital bazasini mustahkamlash, kredit portfeli sifatini yaxshilash, risklarni boshqarish strategiyalarini takomillashtirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi omillarni aniqlash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va yondashuvlar ilgari surilgan.

Shuningdek, olimlarning ilmiy ishlarida banklar faoliyatida zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni tatbiq etish, aktiv va passiv operatsiyalarni diversifikatsiya qilish, moliyaviy monitoringni kuchaytirish, xalqaro standartlar (IAS, Basel III) talablari asosida risklarni kamaytirish va bank tizimida shaffoflikni ta'minlashning ahamiyati alohida ta'kidlangan. Milliy iqtisodiy sharoitdan kelib chiqqan holda, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi bo'yicha ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar mamlakat bank tizimini modernizatsiya qilish hamda uning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini bank tizimi barqarorligi, kapital yetariligi, likvidlikni boshqarish va kredit risklarini tahlil qilishga oid iqtisodiy-nazariy yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu ilmiy tadqiqotda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash omillari tizimli tahlil qilinib, xalqaro reyting agentliklari baholarining banklar



faoliyatiga ta'sirini o'rganish uchun analitik, taqqoslama, statistik va modellash usullari qo'llanildi. Tadqiqotda "O'zmilliybank" misolida xalqaro reytinglar orqali moliyaviy barqarorlikni diagnostika qilish va baholash mezonlari shakllantirildi, reyting baholari bilan bankning kapital, risk va kredit sifat ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi.

Tadqiqot davomida Moody's, Standard & Poor's (S&P), Fitch Ratings, RAM Ratings va Dagong Global kabi reyting agentliklari metodologiyalari asosida baholash mexanizmlari o'rganildi, ular orqali bankning moliyaviy salohiyati, risklarni qoplash qobiliyati, kredit portfeli sifati, likvidlik va boshqaruv samaradorligi tahlil qilindi. Shuningdek, tijorat banklarining moliyaviy ko'rsatkichlarini baholashda Basel III talablariga asoslangan kapital yetarliligi koeffitsientlari, NPL darajasini hisoblash usullari, likvidlik indeksleri va risklarni diversifikatsiya qilish modellari qo'llandi.

Tadqiqotda amaliy natijalar olish maqsadida milliy bank tizimi bo'yicha statistik ma'lumotlar, bank hisobotlari, xalqaro reyting agentliklari tahlillari hamda normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanildi. Shuningdek, bank barqarorligini ta'minlash strategiyalarini belgilashda ekspert baholash yondashuvi qo'llanilib, bank boshqaruvi, korporativ nazorat hamda innovatsion moliyaviy texnologiyalarni joriy etish samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish masalasi zamonaviy moliya tizimining eng dolzarb, murakkab va keng qamrovli yo'nalishlaridan biri hisoblanib, nafaqat xalqaro moliyaviy hamjamiyat, balki milliy iqtisodiyotlar uchun ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon banklar faoliyatini samarali tashkil etish, moliyaviy risklarni puxta boshqarish, kapitalni oqilona taqsimlash va barqaror moliyaviy muhit yaratishni talab etadi. Shu jihatdan, tijorat banklari xalqaro miqyosda ishonchli va barqaror moliyaviy institut sifatida tan olinishiga xizmat qiluvchi mexanizmlarni shakllantirish nihoyatda muhimdir.

Moliyaviy barqarorlikni baholash va banklarning raqobatbardoshligini kuchaytirish maqsadida xalqaro moliya bozorlarida keng tan olingan reyting agentliklari faoliyat yuritadi. Ushbu agentliklar tijorat banklarining moliyaviy holati, kredit salohiyati, kapital yetarliligi, likvidlik darajasi, operatsion samaradorlik, risklarni boshqarish tizimi hamda korporativ boshqaruv sifati kabi muhim ko'rsatkichlarni chuqur tahlil etadi. Shundan kelib chiqqan holda ular tegishli reytinglarni shakllantirib, banklarning bozor ishonchiligi, investorlar uchun jozibadorlik darajasi va xalqaro moliyaviy munosabatlarda ishtirok imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Xalqaro reytinglarda yetakchi banklarning o'rne

№	Reyting agentligi	Dunyo bo'yicha yetakchi banklar
1	Moody's	JPMorgan Chase, Bank of America, Citibank
2	Standard & Poor's (S&P)	HSBC, Wells Fargo, Barclays
3	Fitch Ratings	Deutsche Bank, UBS, BNP Paribas
4	Bloomberg	Goldman Sachs, Morgan Stanley, Credit Suisse
5	Thomson Reuters	Banco Santander, Société Générale, ING

Xalqaro moliyaviy bozorda eng nufuzli va obro'li deb e'tirof etiladigan reyting agentliklari qatoriga Moody's Investors Service, Standard & Poor's Global Ratings (S&P), Fitch Ratings, Bloomberg hamda Thomson Reuters kabi yirik moliyaviy tahlil va axborot tashkilotlari kiradi. Ushbu agentliklar tijorat banklarining moliyaviy holatini baholashda an'anaviy hamda zamonaviy metodologiyalarni qo'llagan holda, ularning kapital bazasi mustahkamligi, kredit va bozor risklarini qoplash salohiyati, likvidlik ko'rsatkichlari, aktivlar sifati, boshqaruv tizimining samaradorligi, shuningdek, iqtisodiy va siyosiy muhitdagi o'zgaruvchan sharoitlarda barqarorlik darajasini chuqur tahlil qiladi. Masalan, dunyoning yetakchi moliyaviy markazlarida faoliyat yurituvchi JPMorgan Chase, Bank of America va Citibank kabi moliyaviy gigantlar Moody's tomonidan yuqori reytinglar bilan baholangan bo'lib, bu ularning moliyaviy jihatdan barqaror, risklarni samarali boshqaruvchi hamda global bozor sharoitlariga moslashuvchan institutlar ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, Standard & Poor's reyting agentligi tomonidan baholangan HSBC, Wells Fargo, Barclays banklari keng geografik qamrovga ega bo'lgan diversifikatsiyalangan kredit portfeli va ilg'or boshqaruv tizimi tufayli yuqori reytinglarga ega. Fitch Ratings esa Deutsche Bank, UBS, BNP Paribas kabi yirik banklarning moliyaviy barqarorligini yuqori baholaydi va ularning risklarni boshqarish hamda tahlil qilishdagi yirik tajribasiga e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, Bloomberg va Thomson Reuters moliyaviy axborotlarni tahlil qilish va bozor monitoringini yuritishga ixtisoslashgan bo'lib, ular



Goldman Sachs, Morgan Stanley, Credit Suisse, Banco Santander, Société Générale va ING kabi banklarning bozor pozitsiyasini baholab, investorlarga muhim axborotlarni taqdim etadi.

Shuni ta'kidlash zarurki, xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan moliyaviy baholar tijorat banklarining nafaqat global moliya bozorida mavqeini, balki ularning ichki moliyaviy boshqaruv tizimi qanchalik samarali tashkil etilganini ham aks ettiradi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda faoliyat yurituvchi tijorat banklari uchun ushbu reytinglar moliyaviy barqarorlikni oshirish, investorlar e'tiborini jalb qilish, xalqaro moliyaviy hamkorlikni kengaytirish va bozordagi raqobatbardoshlikni mustahkamlashda asosiy ko'rsatkich sifatida xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston bank tizimining yetakchi vakili sifatida "O'zmilliybank"ning xalqaro reyting agentliklari tomonidan beriladigan baholari bankning moliyaviy salohiyati va barqarorligini belgilashda muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Moody's tomonidan "O'zmilliybank"ga berilgan B2 darajasi bankning mintaqaviy iqtisodiy muhitda barqaror faoliyat yuritayotganini, shuningdek, risklarni boshqarish va moliyaviy majburiyatlarni bajarish qobiliyati yetarli darajada ekanligini ko'rsatadi. Mazkur reyting bank uchun xalqaro moliyaviy bozorlarda hamkorlikni yanada kengaytirish, investorlar bilan aloqalarni mustahkamlash va moliyaviy barqarorlikni yanada kuchaytirishga xizmat qiluvchi istiqbolli imkoniyatlarni ochib beradi (2-jadval).

2-jadval. Xalqaro reytinglarda "O'zmilliybank"ning baholanishi

№	Reyting agentligi	"O'zmilliybank" reytingi	"O'zmilliybank"ning o'rni / pozitsiyasi
1	Moody's	B2	Mintaqadagi rivojlanayotgan banklar ichida barqaror o'rta daraja
2	Standard & Poor's (S&P)	B+	O'zbekiston banklari orasida yuqori o'rin, xalqaro maydonda barqaror o'rta ko'rsatkich
3	Fitch Ratings	B	Mintaqaviy banklar ichida barqaror o'rta daraja
4	RAM Ratings (Malayziya)	BB3	Rivojlanayotgan bozor banklari orasida barqaror o'rta pozitsiya
5	Dagong Global (Xitoy)	B	Mintaqaviy miqyosda barqaror o'rta reyting darajasi

Standard & Poor's reyting agentligi tomonidan "O'zmilliybank"ga berilgan B+ reytingi bankning O'zbekiston milliy banklari orasida yetakchi mavqega ega ekanini, global moliya bozorida esa o'rta darajadagi barqarorlikni namoyish etishini bildiradi. Mazkur reyting bankning xalqaro moliya bozori talablariga moslashuvchanligini, shu bilan birga, yanada yuqori reytinglarga erishish uchun risklarni yanada kamaytirish, boshqaruv tizimini kuchaytirish hamda moliyaviy ko'rsatkichlarni muntazam ravishda takomillashtirish zarurligini anglatadi.

Fitch Ratings agentligi tomonidan berilgan B darajasi "O'zmilliybank"ning mintaqaviy banklar orasida barqaror o'rta pozitsiyani egallayotganligini tasdiqlaydi. Bu reyting bank faoliyatini yanada rivojlantirish, kapital bazasini mustahkamlash, kredit portfeli sifatini yaxshilash va risklarni boshqarish mexanizmlarining samaradorligini oshirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni belgilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, Malayziyadagi RAM Ratings agentligi tomonidan berilgan BB3 reytingi "O'zmilliybank"ni rivojlanayotgan bozor banklari orasida barqaror o'rta pozitsiyada ekanligini bildiradi. Bu baho bank uchun xalqaro standartlarga muvofiqlikni yanada kuchaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Xitoyning Dagong Global reyting agentligi tomonidan berilgan B darajasi ham bankning mintaqaviy miqyosda o'rta darajadagi barqaror reytingga ega ekanini e'tirof etadi. Mazkur reyting bank faoliyatini yanada takomillashtirish, innovatsion boshqaruv yondashuvlarini kengaytirish va raqobatbardosh choralarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan baholar "O'zmilliybank" uchun moliyaviy salohiyatni oshirish, investorlar e'tiborini jalb qilish, xalqaro moliya maydonida o'z pozitsiyasini yanada mustahkamlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish yo'nalishlari xalqaro reyting baholari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning har biri bankning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi, moliyaviy xavfsizligi va jahon moliya bozorida muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, "O'zmilliybank" kabi yetakchi milliy banklar uchun reytinglarni yaxshilash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uzluksiz, kompleks va innovatsion yondashuvlarni talab qiladigan ustuvor vazifadir. Bunda moliyaviy boshqaruv, risklarni nazorat qilish, strategik rivojlanish, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish hamda xalqaro hamkorlik yo'nalishlarida kompleks chora-tadbirlarni keng qamrovda amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Natijada, tijorat banklarining



moliyaviy barqarorligi mustahkamlanib, ular nafaqat milliy iqtisodiyotda, balki mintaqaviy va global moliyaviy tizimda ham ishonchli institutsiya sifatida o'z mavqeini mustahkamlash imkoniga ega bo'ladilar.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha asosiy strategik yo'nalishlar zamonaviy bank tizimi sharoitida banklar faoliyatining samaradorligini, ishonchililigini va uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Avvalo, banklarning kapital bazasini mustahkamlash dolzarb ahamiyatga ega. Kapital — bankning moliyaviy barqarorligi tayanchi bo'lib, u moliyaviy zarbalarga bardosh bera olish imkoniyatini ta'minlaydi. Xalqaro amaliyotda, ayniqsa Basel III talablariga muvofiq ravishda kapitalni yetarli darajada shakllantirish banklarning risklarni samarali qoplash qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, banklarda likvidlikni to'g'ri boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Likvid aktivlarga ega bo'lgan bank moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida bajaradi, pul oqimlarini aniq prognozlaydi va qisqa muddatli barqarorlikni ta'minlaydi.

Muammoli kreditlar (NPL) darajasini kamaytirish ham moliyaviy barqarorlikning muhim omillaridan biri sanaladi. Kredit portfeli sifatini yaxshilash, qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini chuqur tahlil qilish, qaytmayotgan kreditlarga nisbatan oldindan choralar ko'rish hamda zaxiralarni o'z vaqtida shakllantirish bankning riskga chidamliligini oshiradi va daromad barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, zamonaviy sharoitda integratsiyalashgan risk-menejment tizimini joriy etish zarur bo'lib, bunda kredit, bozor, likvidlik, operatsion hamda huquqiy risklarni kompleks boshqarish talab etiladi.

Innovatsion texnologiyalarni bank amaliyotiga keng tatbiq etish operatsion xarajatlarni qisqartiradi, xizmat ko'rsatish sifati va tezligini oshiradi. Sun'iy intellekt asosida kredit tahlili, mobil ilovalar, onlayn banking, fintech platformalari bankning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish ham moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Boshqaruv organlarining shaffof faoliyati, hisobdorlik tamoyillariga asoslangan boshqaruv, ichki nazorat va audit tizimlarining kuchliligi investorlar ishonchini oshiradi va bankning xalqaro reytinglariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda daromad manbalarini diversifikatsiyalash ham zarur. Kreditlardan tashqari xizmat ko'rsatish haqlari, investitsion operatsiyalar va xalqaro moliyaviy xizmatlar orqali daromadlarni kengaytirish bankning moliyaviy salohiyatini oshiradi va barqarorlikni ta'minlaydi (3-jadval).

3-jadval. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari

№	Yo'nalish	Tavsif
1	Kapital bazasini mustahkamlash	Moliyaviy zarbalarga bardoshlilikni oshiradi, Basel III talablariga moslashish orqali risklarni qoplash salohiyatini kuchaytiradi.
2	Likvidlikni boshqarish	Kutilmagan to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish, pul oqimlarini tahlil qilish va samarali boshqarish orqali qisqa muddatli barqarorlikni ta'minlaydi.
3	Muammoli kreditlarni (NPL) kamaytirish	Kredit portfeli sifatini yaxshilash, qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini chuqur tahlil qilish va zaxiralarni o'z vaqtida shakllantirish orqali riskni minimallashtiradi.
4	Risklarni kompleks boshqarish	Kredit, bozor, operatsion va huquqiy risklarni aniqlash hamda integratsiyalashgan tizim asosida ularni kamaytirish choralari belgilaydi.
5	Innovatsion texnologiyalarni joriy etish	Fintech va raqamli texnologiyalar orqali jarayonlarni avtomatlashtirish, operatsion xarajatlarni qisqartirish va xizmat ko'rsatish sifati oshirishga xizmat qiladi.
6	Korporativ boshqaruvni kuchaytirish	Ochiqlik, hisobdorlik, ichki nazorat tizimi va strategik boshqaruvni takomillashtirish orqali investorlar va mijozlar ishonchini oshiradi.
7	Xalqaro reytinglarni yaxshilash	Moody's, S&P, Fitch kabi reyting agentliklarida yuqori baholarga erishish orqali bankning obro'si va investorlar ishonchi oshadi.
8	Diversifikatsiya siyosati	Daromad manbalarini kengaytirish, kredit portfelini sektorlar va mintaqalar bo'yicha diversifikatsiya qilish barqarorlikni ta'minlaydi.
9	Regulyator talablariga rioya qilish	Markaziy bank me'yorlariga mos faoliyat yuritish, huquqiy talablarni bajarish va moliyaviy intizomni mustahkamlash orqali sanksiya risklarini oldini oladi.



Kredit portfelini tarmoqlar va mintaqalar kesimida diversifikatsiya qilish banklar uchun bir yoqlama risklarni kamaytirish va kredit xavfini muvozanatlash imkonini beradi. Bu jarayon bankning risklarga chidamliligini oshirib, kredit portfelining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shuningdek, regulyator talablariga qat'iy amal qilish, Markaziy bankning ko'rsatmalariga izchil rioya etish hamda moliyaviy hisobotlarning aniqligi va shaffofligini ta'minlash bank tizimida qonuniylik, intizom va boshqaruv madaniyatini kuchaytiradi. Natijada, bank faoliyatining umumiy barqarorligi va ishonchligi mustahkamlanadi.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish masalasi nafaqat banklar faoliyatining samaradorligi va xavfsizligini ta'minlashda, balki umuman mamlakat iqtisodiyotining ishonchligi, iqtisodiy o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, global moliyaviy bozorlardagi tezkor o'zgarishlar, iqtisodiy noaniqliklar va moliyaviy risklarning ortib borishi sharoitida banklar uchun barqarorlikni saqlash va oshirish strategik vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. "O'zmilliybank" misolida olib borilgan tahlillar bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va xalqaro moliya bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli, tizimli va innovatsion chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi. Bu jarayon kapitalni oshirish, muammoli aktivlarni kamaytirish va likvidlikni yaxshilash bilangina cheklanmay, balki boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, risklarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish va raqamli moliyaviy innovatsiyalarni joriy etishni ham talab qiladi. Shu tariqa, bank o'z ichki moliyaviy salohiyatini mustahkamlab, xalqaro investorlarga nisbatan jozibadorligini oshiradi va global moliyaviy maydonda raqobatbardosh o'rinni egallash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Moliyaviy barqarorlikni oshirish jarayonida "O'zmilliybank"ning xalqaro reyting agentliklari tomonidan baholanishi uning moliyaviy holati qaysi sohalarida takomillashtirishni talab etishini belgilashga yordam beradi. Masalan, Moody's tomonidan berilgan B2 reytingi bankning rivojlanayotgan mintaqaviy bozorlar doirasida barqaror o'rta darajaga ega ekanini ko'rsatadi va moliyaviy salohiyatni yanada kuchaytirish uchun keng imkoniyatlarga ega ekanligini bildiradi. Standard & Poor's (S&P) tomonidan berilgan B+ bahosi bankning milliy banklar orasida yetakchi o'rinni egallashini tasdiqlaydi, shu bilan birga, xalqaro bozorda yanada yuqori raqobatbardoshlikka erishish zaruratini anglatadi. Fitch Ratings hamda RAM Ratings tomonidan berilgan reytinglar "O'zmilliybank"ning moliyaviy barqarorlikni oshirishda sezilarli salohiyatga ega ekanini va yuqori standartlarga mos kelish bo'yicha strategik tadbirlarni amalga oshirish muhimligini ta'kidlaydi. Demak, reytinglar bank uchun nafaqat baholash vositasi, balki kelgusidagi rivojlanish strategiyasini shakllantirishda yo'naltiruvchi manba vazifasini bajaradi.

Moliyaviy barqarorlikni oshirishda "O'zmilliybank" uchun asosiy ustuvor yo'nalish — kapital bazasini sezilarli darajada kuchaytirishdir. Kuchli kapital bankni ichki va tashqi moliyaviy shoklardan himoya qiladi, kredit risklarini qoplaydi va operatsion barqarorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, kredit portfelidagi muammoli aktivlarni kamaytirish, ularni erta aniqlash va oldini olish bo'yicha qat'iy choralarni qo'llash bankning risk darajasini pasaytiradi va umumiy moliyaviy barqarorlikni oshiradi. Ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish, korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga moslashtirish, hisobdorlik va shaffoflikni kuchaytirish, innovatsion moliyaviy texnologiyalarni joriy etish esa operatsion samaradorlikni oshiradi, mijozlarga xizmat sifatini yaxshilaydi va yangi investorlar uchun jozibadorlikni kuchaytiradi. Xalqaro moliya bozorida mustahkam mavqega ega bo'lish uchun bank moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni diversifikatsiya qilish, global moliyaviy innovatsiyalarni faol qo'llash va xalqaro standartlarga uzluksiz moslashishga e'tibor qaratishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarining, jumladan "O'zmilliybank"ning moliyaviy barqarorligini oshirish keng qamrovli, tizimli va uzluksiz jarayon bo'lib, u bank faoliyatining barcha yo'nalishlarini qamrab olishi zarur. Bu jarayon faqat moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash bilan cheklanmay, balki boshqaruv tizimini takomillashtirish, risklarni ilmiy asosda boshqarish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro moliyaviy hamkorlikni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Buning natijasida tijorat banklari moliyaviy salohiyatini mustahkamlab, xalqaro moliya bozorlarida raqobatbardosh va ishonchli institut sifatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi mumkin. Mazkur omillar esa mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi, moliyaviy xavfsizligi va iqtisodiy rivojlanishining muhim tayanchi sifatida namoyon bo'ladi.

Shuning uchun "O'zmilliybank" va boshqa tijorat banklari uchun moliyaviy barqarorlikni oshirishga qaratilgan strategik yo'nalishlar va chora-tadbirlarni muntazam ravishda ishlab chiqish va samarali amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv nafaqat alohida bank faoliyatini mustahkamlashga, balki butun milliy moliya tizimining barqarorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu jarayon O'zbekistonning global moliyaviy bozorlar bilan integratsiyasini yanada kuchaytiradi va xalqaro miqyosda moliyaviy ishonchlik darajasini oshiradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Iminov O.K. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit tizimi va uni takomillashtirish masalalari. Doktorlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2001-yil.
2. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash. Doktorlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2000-yil.
3. Umarova Z.S. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari kredit emissiyasini tartibga solishni takomillashtirish. Nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2011-yil.
4. Muxamedjanov K.A. Puti sovershenstvovaniya upravleniya kreditnym portfelem i kreditnymi riskami kommercheskogo banka. Dissertatsiya na soiskaniye kand. ekon. nauk. – Toshkent, 2010-yil.
5. Saidov D.A. Tijorat banklarining qisqa muddatli kreditlash amaliyoti va uni takomillashtirish yo'llari. Nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2008-yil.
6. Pulatov D.X. Modernizatsiya kreditnoy politiki v usloviyax reformirovaniya bankovskoy sistemi Respubliki Uzbekistan. Dissertatsiya kand. ekon. nauk. – Toshkent, 2008-yil.
7. Azizov U.O'. Tijorat banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishni takomillashtirish masalalari. Nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2004-yil.
8. Berdiyarov B.T. Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadliligi. Nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2002-yil.
9. Abdug'aniyev B.A. Moliyaviy manbalar va bank kreditlarining samaradorligi muammolari (Toshkent viloyati qishloq xo'jaligi korxonalari misolida). Nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2004-yil.
10. Tuxtabayev U.A. Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari. Nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2007-yil.
11. Qulliyev I.Y. Kredit bahosining shakllanishi va uni takomillashtirish. Nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2010-yil.
12. Jiyanova N.E. Tijorat banklari aktivlari va passivlarini samarali boshqarish yo'nalishlari. Nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2010-yil.
13. Tuxsanov X.A. Protsentnaya politika bankov i voprosy yeyo regulirovaniya v usloviyax rynochnoy ekonomiki (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya kand. ekon. nauk. – Toshkent, 2006-yil.
14. Suyunova D.J. Pravovoye regulirovaniye kreditnyx otnosheniy v Respublike Uzbekistan i problemy yego sovershenstvovaniya. Dissertatsiya kand. ekon. nauk. – Toshkent, 2012-yil.
15. Saypidinov I.M. Osnovnyye puti sovershenstvovaniya kreditovaniya kommercheskimi bankami subyektov malogo biznesa (na materialax Respubliki Kyrgyzstan). Dissertatsiya kand. ekon. nauk. – Bishkek, 2010-yil.
16. Kuziyeva N.R. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya–kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2008-yil.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>